SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/2

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 12/2 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров ҚулматАширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

## М У Н Д А Р И Ж А

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Axmedov Oybek Saparbaevich*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ ........ 10-18

*Нематова Мафтуна*
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН ........ 19-24

*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna*
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI ........ 25-32

*Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi*
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 33-38

*Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna*
BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI ........ 39-43

*Jumanova Shahnoza Ikromjonovna*
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI ........ 44-50

*Achilov Oybek Rustamovich*
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 51-57

*Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna*
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI ........ 58-62

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI ........ 63-68

*Кенжабоев Шокир Абдулхалимович*
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА ........ 69-74

*Fayziyev Bahodir Baxshullayevich*
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI ........ 75-79

*Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi*
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI ........ 80-84

*Тухтаева Фарида Исматуллаевна*
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК ........ 85-90

*Radjabova Dildora Raximovna*
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI ........ 91-96

*Mansurova Shohista Ismailovna*
BADIIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI ........ 97-102

*Ermatov Ixtiyor*
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI ........ 103-108

*Axmedjanova Farida Djavairovna*
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ........ 109-114

*Saitov Suxrob Djumaydillayevich*
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY ........ 115-119

*Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи*
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР ........ 120-124

*Toshpoʻlatova Xusniya Mamayusub qizi, Normatatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI ........ 125-129

*Абдуманнонов Хожиакбар Акмалжон угли*
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) ........ 130-136

*Абдуллаева Раъно Хикматовна*
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА ........ 137-144

*Hamidova Sayyora Nurmatovna*
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR ........ 145-151

*Rustamova Dilrabohon*
ATAMALAR LUGʻATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI ........ 152-157

*Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna*
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE ........ 158-162

*Farmonov Nurbek Pulatovich*
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH ........ 163-169

*Xojiyeva Oynisa Shabonovna*
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI ........ 170-176

*Norqobilov Sanjar Rahmat ugli*
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES ........ 177-182

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI ........ 183-190

*Xoʻjamqulov Anvar Jozilovich*
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI ........ 191-196

***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманиязова Света Байниязовна*
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 197-203

*Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна*
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ........ 204-209

*Toshkanov Nurbek Bahriddinovich*
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI ........ 210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI ..............217-223

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI ..............224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODIKASI ..............229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..............234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI ..............240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI ..............245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI ..............259-265

*Valieva Xolida*
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI ..............266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..............272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
TA'LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ..............278-285

*Mamaraimova Zebo Shafoatovna*
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI ..............286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILIY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI ..............291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ..............296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA ..............306-310

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI ..............................311-315

*Xushvaqtov Umar Norqobilovich*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI ..............................316-320

*Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ..............................321-326

*No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi*
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI ..............................327-331

*Xalikov Faroxidin*
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI ..............................332-339

*Abduvaxidov Xusan Abdukulovich*
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ..............................340-345

*Якубова Нафиса Одилжановна*
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..............................346-354

*Karimov Qayum Mamashayevich*
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH ..............................355-360

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..............................361-371

*Касимов Ойбек Омилович*
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ...372-378

*Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich*
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI ..............................379-386

*Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович*
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ..............................387-394

*Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li*
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI ..............................395-400

*Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ..............................401-406

*Khidirova Malakhat Qazakhovna*
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES ....................407-413

*Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi, Xolbo‘tayeva Moxinur Temurboy qizi*
MENEJMENT SOHASINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ....................414-420

*Achilov Nuriddin Abdugafforovich*
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA’LIMOTINING ILMIY TADQIQI ....................421-426

*Norinov Muxammadyunus Usibjonovich*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI ....................427-432

*Begimqulov Zarif Axmadovich*
JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI ....................433-438

*Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi*
BO‘LAJAK BOShLANG‘ICh SINF O‘QITUVChILARINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISh SAMARADORLIGI ....................439-443

*Jumayev Sirojiddin Zafarovich*
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O‘QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH ....................444-449

*Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna*
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ....................450-457

*Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich*
BOSHLANG`ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ....................458-463

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 12/2 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00– Педагогика фанлари*

**Tangirqulov Elmurod Aliyarovich**
Termiz davlat universiteti “Boshlangʻich taʼlim” kafedrasi oʻqituvchisi
e-mail: tangirqulove@gmail.com

## BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA “YASHIL MAKON” MODULLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlangʻich sinf oʻquvchilarida atrof-muhitni asrash orqali ekologik tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirishning oʻziga xos xususiyatlari va “yashil makon” modullari va boshlangʻich sinf oʻquvchilarida atrof-muhitni asrash orqali ekologik tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirishda oʻtkaziladigan amaliy tadbirlarning shakl va usullari haqida yozilgan.

**Kalit soʻz:** sinf, oʻquvchilar, atrof, ekologik, tarbiya, mexanizm, modul.

**Tangirgulov Elmurod Aliyarovich**
Teacher of the "Primary Education" department of Termiz State University

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF IMPROVING MECHANISMS OF ECOLOGICAL EDUCATION THROUGH ENVIRONMENT PROTECTION IN PRIMARY CLASS STUDENTS AND "GREEN SPACE" MODULES

**Abstract.** This article focuses on the specific features of improving the mechanisms of environmental education for primary school students through environmental protection and "green space" modules and improving the mechanisms of environmental education for primary school students through environmental protection. written about the forms and methods of practical events.

**Key word:** class, students, environment, ecological, education, mechanism, module.

**Тангиркулов Элмурод Алиярович**
Преподаватель кафедры «Начальное образование» Термезского государственного университета

## ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ЗАЩИТУ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И МОДУЛЕЙ «ЗЕЛЕНОЕ ПРОСТРАНСТВО»

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности совершенствования механизмов экологического воспитания младших школьников через модули «Охрана окружающей среды» и «Зеленые насаждения», а также совершенствования механизмов экологического образования младших школьников через охрану окружающей среды. события.

**Ключевые слова:** класс, учащиеся, среда, экология, образование, механизм, модуль.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N38

**Kirish.** Har bir shaxsning faolligiga erishish orqali jamiyatda yuksak ekologik madaniyatni shakllantirish muammosining yechimi oʻquvchilarni ular olam manzarasini ongli ravishda tasavvur eta boshlagan davrlaridan boshlab ekologik ruhda tarbiyalab borishdan iborat ekanligi bugungi kunda yangilik hisoblanmaydi. Ekologik tarbiyani toʻgʻri tashkil etishga qaratilgan bir qator mexanizmlar mavjud, biroq ularning samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillar ham borki, bu kattalarning nomaqbul xatti-harakatlari bilan bogʻliqdir.

Masalan, oʻquvchi koʻz oʻngida kattalar tomonidan tabiatga tajovvuz qilinishi, ota-onalarning ichimlik suvidan betartib foydalanishlari, baʼzan oʻqituvchilarning atrof-muhit ozodaligi qoidalariga boʻysunmasligi ekologik tarbiyaning samaradorligiga putur yetkazishi mumkin boʻlgan holatlar sirasiga kiradi[1].

**Tahlil va natija.** Demak, ekologik tarbiya mexanizmlarini shunday takomillashtirish kerakki, sanab oʻtilgan salbiy omillar bola tasavvurida “faqat yomon odamlar bunday ish qiladi”, “hamma ham tabiatga bunday yomonlik qilmaydi”, degan tasavvur qolishi lozim. Bu borada pedagogik va metodik tavsiyalarni keltirib oʻtishdan oldin, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga ekologik tarbiya berishning asosiy mexanizmlari va ularning qisqacha mazmunini yana bir karra keltirib oʻtamiz.

I. Boshlangʻich ekologik bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish hamda bolaning ekologik dunyoqarashini kengaytirish.

II. Bolada tabiatga nisbatan emotsional-ijobiy tuygʻularni uygʻotish.

III. Ijodiy-emotsional munosabatni shakllantirish.

IV. Tabiatni asrash boʻyicha amaliy koʻnikmalarni shakllantirish.

V. Ekologik tafakkurni shakllantirish.

VI. Tabiatni yaqindan anglash.

VII. Oilaviy tarbiya.

Koʻrib turganimizdek, sanab oʻtilgan mexanizmlarning deyarli hammasida ekologik bilim, koʻnikma, malaka va ekologik dunyoqarash sezirli oʻrin tutadi. Shuning uchun ekologik tarbiyaning ekologik taʼlim bilan uygʻunlikda olib borilishi orqali bolaning maqbul ekologik xatti-harakatlarni qalban his etish natijasida ongli ravishda sodir etishiga erishish mumkin. Biz ekologik tarbiyaning mazkur mexanizmlaridan har birini alohida koʻrib chiqamiz.

Ekologiya sohasiga oid boshlangʻich bilimlarni aniqlashtirish, yaʼni boshlangʻich sinf oʻquvchisining mufassal ekologik tarbiyaga ega boʻlishi uchun qanday darajadagi boshlangʻich bilimlarni oʻzlashtirishi lozimligi “Oʻzbekiston Respublikasida ekologik taʼlimni rivojlantirish konsepsiyasi”da tavsiyaviy mundarijali tarzda koʻrsatib oʻtiladi. Mazkur hujjatga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilari moʻtadil darajadagi ekologik axloqqa (tarbiyalanganlikka) ega boʻlishlari uchun oʻquv fanlari doirasida qoʻshimcha ravishda: *“suvni tejash, atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish, yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, chiqindilarni yigʻish va joylashtirish, Oʻzbekistonning goʻzal va takrorlanmas tabiatini asrash, oʻzi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etish, Oʻzbekistondagi qoʻriqxonalar va tabiat bogʻlari toʻgʻrisida, Orol dengizi fojiasi toʻgʻrisida umumiy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim”ligi* belgilab berilgan.

Boshlangʻich ekologik bilimlar bilan olamning bola tasavvuridagi manzarasi oʻrtasidagi uygʻunligini taʼminlash masalasi bir qator mutaxassislarning eʼtiborini tortgan masalalardan

biridir. Mutaxassislarning fikridan kelib chiqib, biz quyida boshlangʻich sinf oʻquvchisining ekologik bilimlari mazmun-mundarijasini hosil qiluvchi bilimlar, maʼlumotlar va axborotlar tizimini keltirib oʻtamiz:

*-zamonaviy ekologiyada keng qoʻllaniladigan va mahalliy hamda mintaqaviy ekologik muammolar tavsifida tilga olinadigan kamida 25 ta atamaning tavsifi va xususiyatlarini bilishi (masalan, "Oʻrmon fondi", "Chuchuk suv zaxirasi", "Tuproq tarkibining buzilishi", "Erning shoʻrlanishi", "Havoning ifloslanishi" kabi tushunchalar);*

*-oʻz yashash manzilining iqlimi, kamayib borayotgan yovvoyi jonvorlari haqida 10 faktni aytib va asoslab bera olishi (masalan, "Bu yil qishda eng past harorat -15$^0$ ga tushdi", "Anomal issiqlikning sababi nima?", "Keyingi yillarda qushlarning qaysi turlari kamayib bormoqda?" kabi);*

*-tabiatni muhofaza qilish bilan shugʻullanuvchi davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati haqida umumiy maʼlumotlarga ega boʻlish;*

*-ekologik huquqbuzarlik uchun mahalliy tabiatni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan qoʻllaniladigan jazo turlari haqida boshlangʻich maʼlumotlarni bilish;*

*-xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining faoliyati haqida umumiy maʼlumotlarga ega boʻlish;*

*-oʻz yashash hududidagi daryolar, togʻlar, koʻllar va shu kabi tabiiy obʼektlarni umumiy tarzda tavsif eta olish;*

*-oʻz yashash hududidagi qoʻriqlanadigan, muhofaza etiladigan tabiiy obʼektlar haqida maʼlumotlarga ega boʻlish va qushlar, oʻsimlik va hayvon turlari, respublika ahamiyatidagi tarixiy obʼektlar haqida yetarli darajada bilish zarur boʻladi*[2, 36-37-B].

Savollarni har bir oʻtiladigan mavzu bilan bogʻliq ravishda oʻqituvchi ijodiy tarzda tuzib chiqishi lozim.

*Masalan, "Tabiatshunoslik" fanida "Suv" mavzusi oʻtiladigan boʻlsa, darslikda taqdim etiladigan mavzusiga oid materiallardan tashqari hududdagi mavsumiy va doimiy suv manbalari, buloqlar, ularning paydo boʻlish sharoitlari, suvdan qishloq xoʻjaligi manfaatlarida foydalanilish madaniyatiga oid sodda va tushunarli maʼlumotlar taqdim etilishi lozim.*

Boshlangʻich ekologik bilimlarni milliy qadriyatlarga va mahalliy ekologik muammolarga uygʻunlashtirgan holda taqdim etish taʼlimni tarbiya bilan uygʻunlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrni Surxondaryo vilotyati qishloqlari oilalariga xos boʻlgan ikki qadriyatning barqaror yashab kelayotganlik fakti bilan tushuntirish mumkin. Birinchisi, keksa otaxonlar istiqomat qiladigan har bir anʼanaviy oilada yosh bolalarga "Nonni yerga tashlama – uvol boʻladi", "Suvga tupurma – yomon boʻladi" kabi doimiy oʻgitlar orqali Non va Suv tabiiy neʼmat sifatida maʼlum maʼnoda ilohiylashtirilgan. Ikkinchidan, Surxondaryo viloyatining togʻ va togʻoldi qishloqlarida pedagogikada ekologik tarbiya deb ataladigan jarayonning sof milliy-mahalliy koʻrinishlari hamon bolalar tarbiyasida ustivorlik qilib kelmoqda. Yaʼni "Jonvorlarga ozor berma – qargʻaydi", "Qushlarning inini buzma – xudodan senga yomonlik tilaydi", "Qaldirgʻochga uyingdan joy ber, chunki u odamning doʻsti" kabi diniy-mistik mazmundagi tasavvurlar isbot talab qilmaydigan oʻgitlarga aylanib ketishi natijasida, yosh bolalar ongida oʻziga xos tasavvur hosil qiladi[1]. *Shuningdek, xalq oʻgitlari, maqollar, topishmoqlar, millat mutafakkirlari ijodidagi tabiatni asrash mavzusida yozilgan namunalarni sodda koʻrinishga keltirib, ulardan oʻrinli foydalanish mumkin. Bu borada, Oybekning "Bolalik" qissasidagi "Ayvondagi ilon" lavhasi, Asqad Muxtorning "Amu" romanidagi "choʻloq bedana" lavhasi, "Ur, toʻqmoq" ertagida Laylakvoyning yaxshilik evaziga katta mukofot berishi kabi*

*lavhalarni ta'sirli tarzda bayon qilishi va lavhalar asosida bolalarni o'ylashga, mulohaza qilishga da'vat etuvchi savollar tuzishi kutilgan natijani beradi.* Demak aytish mumkinki, milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiya bola ekologik tarbiyasining o'zagini (yadrosini) tashkil qiladi. Shuningdek, qishloq hududlarida suvdan xo'jalik maqsadlarida pala-partish foydalanish, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan yovvoyi o'simliklarni ehtiyojsiz nobud qilishi, bug'doydan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin ekish uchun o't qo'yish kabi salbiy yondashuvlar natijasida yuzaga kelgan omillar oqibatida yuzaga kelayotgan lokal ekologik muammolarni bevosita tabiatshunoslik, texnologiya darslarida mavzu uchun tanlash mumkin.

O'qituvchining ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish doirasidagi navbatdagi vazifasi *boshlang'ich ekologik bilimlarni amaliy ekologik maqbul xatti-harakatlar bilan uyg'unlashtirishdan* iboratdir. Unutmaslik lozimki, bola kundalik vaziyatda duch keladigan ekologik omillarga bildiradigan munosabati, ya'ni ekologik xatti-harakatlari ongli va instiktiv ravishda namoyon bo'lishi mumkin[7].

Bolaning muayyan vaziyatlarda ekologik xatti-harakatlarni ongli ravishda sodir etishi uning boshlang'ich ekologik bilimlarga ega ekanligini, o'zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay bilish mahoratini o'rganganligini anglatadi. Oddiy hayotiy vaziyatni ko'z oldimizga keltiramiz: ko'chadan umumfoydalanish maqsadlariga o'rnatilgan suvta'minlash krani ochiq holda oqib turgan vaziyatda ekologik bilimga ega bo'lgan (ya'ni, ushbu suv ta'minlash nuqtasidan behuda oqib ketayotgan suvning tuganmas ne'mat emasligini, muayyan vaqt kesimi oralig'ida qancha suv befoyda isrof bo'lishini ongli ravishda tushungan) bola uni yopib ketadi. Bu xatti-harakatni instiktiv ravishda amalga oshirgan bola (suvning zaxirasi tuganmas emasligi haqida ma'lumotni bilmasligi, ma'lum vaqt kesimi oralig'ida qancha suv oqib ketib, behuda isrof bo'lishi haqida tushunchaga ega bo'lmasligi mumkin) o'z ichki sezgi va emotsiyalariga bo'ysunadi hamda "Suvning uvol ekanligi", "Behuda isrofga yo'l qo'yish odobdan emas"ligi haqidagi qadriyatlarga amal qiladi. Ekologik xatti-harakatni instinktiv tarzda amalga oshirgan bola ekologik tarbiya tushunchasining ijtimoiy-psixologik aspektida tarkib hosil qiluvchi komponentlarni namoyon qiladi. Masalan, o'qituvchi bolalarga *kimyoviy plastmassa asosida ishlatiladigan kundalik buyumlardan foydalanish tartibini jonli hayotiy manzara orqali tushuntirishi mumkin. Bunda plastmassa mahsulotlaridan tayyorlangan mahsulotlarning hech qachon hech qanday tabiiy ta'sirlarga (buzilish, yemirilish, so'kilishi, titilish, erish, eroziya, korroziya va hokazo) uchramasligini, binobarin, bitta mahalla miqyosida bir kunda ishlatiladigan bunday kundalik buyumlar (misol uchun) 3000 donani tashkil etishini, ularni duch kelgan joyga tashlash oqibatini tasavvur qilishga o'rgatish orqali bolaning mazkur vaziyatda o'z boshlang'ich ekologik bilimlaridan foydalanib, qanday yo'l tutishini hayotiy sinovdan o'tkazish mumkin bo'ladi.* Biz buni lo'ndalik uchun "ekologik maqbul xatti-harakat" deb nomlaymiz va u qaysi vaziyatlarda boshlang'ich ekologik bilimlarning hosilasi o'laroq, namoyon bo'lishini bashorat qila olamiz. Biz mazkur xatti-harakatlarni ekologik tarbiyaning pirovard natijasi va ekologik axloq hamda ekologik tafakkur shakllanganligining asosiy alomatlaridan biri, deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining (umuman, shaxsning) ekologik maqbul xatti-harakatlari kundalik hayotning har bir jabhasida – ko'chada, sayrda, dam olish soatlarida, o'yin chog'ida, muzeylarda, ommaviy tadbirlarda va hokazo vaziyatlarda namoyon bo'laveradi[3, 15-17-C].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga boshlang'ich ekologik bilimlarni berish va ularning ekologik dunyoqarashini kengaytirish orqali ekologik tarbiyani amalga oshirish o'qitishning

ilgʻor texnologiyalari, metod, shakl va vositalarini samarali joriy etishni taqozo etadi. Bu metod, shakl, vosita va ilgʻor texnologiyalar "Boshlangʻich sinf taʼlim dasturi"dan oʻrin olgan mavzularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda qoʻllanilishi va bolalarda atrof muhitga mehr-muhabbat, jonvorlarga gʻamxoʻrlik qilish, tabiatdagi har bitta elementning ahamiyatini ongli ravishda anglash, atrof muhitni boyitish, yordamga muhtoj jonzotlarni muhofaza qilishga qiziqish uygʻotish, koʻchalarning sarishta va ozodaligiga hissa qoʻshish kabi koʻnikmalarni tarbiyalab borish, yaʼni boshlangʻich ekologik taʼlimni ilgʻor texnologiyalar, metod va vositalar yordamida atrof muhitni asrash ruhida olib borish maqsadiga qaratiladi.

**Xulosa.** Oʻquv fanlarning ekologik-aksiologik mazmunini yuzaga chiqarish uchun beriladigan topshiriqlar boshlangʻich sinf oʻqituvchisi tomonidan mustaqil va ijodiy yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim. Bunda quyidagi talablarga javob beradigan savollar, topshiriqlar tuzilishi lozim:

-bolaga tanish manzara va vaziyatlar tasvirlanishi;

-yechim boshlangʻich sinf oʻquvchisidan mustaqil fikrlash, mulohazakorlik talab qilishi;

-topshiriqda mahalliy ekologik omillar nazarda tutilishi;

-topshiriq, vazifa va savollar sodda, tushunarli, aniq faktlarga asoslangan boʻlishi, shu bilan birga bolani zoʻriqtirmasligi;

-bolaning ekologik bilimini rivojlantirish bilan bir qatorda unda ekologik muammolarga hamdardlik tuygʻularini shakllantirishga qaratilgan boʻlishi[6, 26-27-B].

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Сурхон тонги" газетаси, 2018 йил, "Элларни бирлаштирган қадрият", 32-сон.
2. Евдокимов А.Ю. Человечество и проблемы экологии / А.Ю. Евдокимов// Образование в современной школе. – 2001. – № 12. –С. 36-37.
3. Ермакова Д.С. Экологическое образование после уроков / Ермакова Д.С. //Дополнительное образование. – 2001. – № 12. – С.15-17.
4. Кучкинов Абдумалик Юлдашович, Бошланғич синф ўқувчиларини табиатни эъзозлаш руҳида тарбиялаш технологияси, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори диссертatsiяси, Термиз-2020, 46-Б.
5. Мамашокиров С. Экологик таълим-тарбия педагогик тамойиллари Халқ таълими. – Тошкент, 1995. - №7-8. – Б. 28-31.
6. Мелибоев А. «Барча фанлар ҳамкорлигида (3-синф «Табиатшунослик» дарслиги мисолида)» Бошланғич таълим – Тошкент, 2008. - №3. 26-27– Б.
7. Яншин А. Л., Мелуа А. И. Уроки экологических просчетов. М.: Мысль, 2004.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).